

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR
UYUSHMASI

NIGINA RUSTAMBOYEVA

BAXT GULLARI

She'rlar



TOSHKENT
“ADABIYOT”
2024

Badiiy rahbar:
Sirojiddin SAYYID

Mas'ul muharrir:
Botir ERGASHEV

Nashr uchun mas'ul:
Hulkar SHERZODOVA

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan an'ana-viy tarzda o'tkazilib kelinayotgan Respublika yosh ijodkor-larining Zomin seminarida 2024-yildan boshlab mamlaka-timizning turli hududlarida faoliyat yuritayotgan ijod mak-tablari o'quvchilari ham ishtirok etishmoqda. Atoqli adiblar nomi bilan atalib, ta'lim jarayonida tilimiz va milliy adabiyo-timizni chuqur o'rganishga, badiiy ijodga alohida ahamiyat berilayotgan mazkur o'quv dargohlaridan badiiy ijod bilan shug'ullanayotgan ko'plab yoshlar yetishib chiqmoqda.

Ijod maktablarining eng iste'dodli o'quvchilari ijodi kitob holida chop etilib, Siz adabiyot muxlislari hukmiga havo-la etilmoqda. Ulardan biri **Ogahiy nomidagi ijod makta-bi** o'quvchisi **Nigina Rustamboyevadir**. Muallif hali yosh. Uning yozganlarida ma'lum kamchiliklar bo'lishi tabiiy. Lekin unda o'qish, o'rganish, izlanish, o'zini ijodiy jihatdan yuksal-tira borish imkoniyati bor. Bu uning o'ziga bog'liq.

Kitob orqali yosh muallifning ko'ngil bitiklarini o'qib, uning ijod bulog'idan bahramand bo'lishingiz mumkin.

ISBN 978-9910-9372-5-5

© N. Rustamboyeva, 2024
© "Adabiyot", 2024

HAYQIRIQ

Sen bilmaysan qalbim nelar deganin,
Tushunmaysan hatto yoshli ko'zimdan.
Qalbimni to'ldirib yig'lasam bot-bot,
Lek...
O'zim to'lg'onaman hayqirig'imdan.

Bilmaysan,
kech kuzda nechun yig'lar ekan ko'k?
Nechun hayhot bilan gumburlar osmon?
Mana, men aytaman, chunki shu onda
Men seni uchratdim, unutding oson.

Hatto yo'lbars mendek hayqirolmaydi,
Mening ovozim ham kuchli na'radan.
Bu sog'inch, bu nafrat qalbidan o'chmas,
Hayqirganimda ham tog'lar bag'ridan.

Ichimda yuragim yig'laydi xasta,
"Nechun chidayapsan, darding to'k hayhot.
Qichqir, yig'la, hayqir, ichingga yutma,
Axir, ushbulardan iborat hayot".

Yig'lasam osmon ham qiladi nola,
Bulutlar chidolmay to'kadi ko'zyosh.
Olis-olislardan hayqirar kimdir,
Xuddi mening kabi qilolmay bardosh.

Agar dengiz o'ngida hayqirsam, e voh,
Ular ham menga jo'r bo'ladi asta.
Men qolib yonimda menga jo'r bo'lib,
Dengiz ham dardini to'kar birpasda.

Dardim to'kolmayapman, qanday azob bu?
Yig'lasam ko'zyoshim daryo bo'lgudek.
Shamol qo'zg'alsa ham yordami zarra,
Sabr qilsam agar, yuz yil kutgudek.

Ammo shunday kunlar keladi bir kun,
Bo'g'zimdan otilar qattiq hayqiriq.
O'sha tamg'angdan ham xalos bo'laman,
Menga oshno bo'lar butun bir borliq.

Sen bilmaysan qalbim nelar deganin,
Tushunmaysan hatto yoshli ko'zimdan.
Qalbimni to'ldirib yig'lasam bot-bot,
Lek...
O'zim cho'chib ketaman hayqirig'imdan.

SURAT

Katta muzey, katta joy,
Sokin, tinchlik va hayrat,
Bittagina suratni,
Ko'rib o'tishadi, lek...
E'tibor bermay faqat.

Nechun xayolim olib,
Tortar meni o'ziga.
O'zgacha bir sir bordek,
Uning mungli ko'zida.

Surat shunday chizilgan:
Rangsiz, ammo naqshinkor,
Yoshlar turar tizilib.
Xatosidan pushaymon,
Bir qiz yig'lar ezilib.

Go'yo jonli insondek,
Najot kutar termulib.
Yordam bergim kelardi,
Menga dardi ilinib.

Aytmoq istaydi, balkim,
Butun qalbida borin.
Balkim o'zi istamas,
Balkim yo'qdir zaboni.

O'zgalarning ishi yo'q,
Ularga bu oddiy hol.
Men ichimdan muzladim,
Ular yurar bermalol.

Termulganimcha hatto,
Sovib ketdim shu zamon.
E'tiborim kerakmas,
Bo'ldi. Angladim. Tamom.

O'z-o'zimga taskinim,
Hayot hali oldimda.
Unutmoq istasam ham,
O'sha surat ongimda...

YIG'LARKAN INSON...

*(Hayotiy jarayonlar bilan bog'lashga
harakat qildim...)*

Dardin to'kmoq uchun yig'larkan inson...
Butun bir qalbini bo'm-bo'sh qoldirib.
Kimgadir dard berar hatto har bir jon,
Gohida bilmasdan, gohida bilib.

Hatto majburlikdan jilmayar inson,
Ko'zi kulib turar, qalbi yig'laydi.
Chetdan qaraganda unutish oson,
Kimdir unutilmay, oxir charchaydi.

Avval kulib turib aldarkan inson,
Manfaat sharobidan bo'lar ekan mast.
Nochorlar oldida kekkayib tanho,
O'z vaqti yetganda tuproqdan ham past.

Bir kun yashamoqdan charcharkan inson,
Hayot sinoviga berganida tan.
Xohishiga binoan uxlaydi asta,
Ammo uy'gonishni xohlamas ekan.

Dardin to'kmoq uchun yig'larkan inson...

HOLAT

Tun. Tim qora osmon. Tim qora yog'du,
Bilaman barida mujassam chiroy.
Nafislik hammani qiladi jodu,
Ammo menga begona bitta to'lin oy.

O'zimdanda o'zgaga chopmaydi ko'nglim,
Faqat o'zim bo'lsam deyman dunyoda.
O'zimni ulug'lab yashagim kelar,
Faqat o'zga tutsam bir gulgun boda.

O'zimning so'zimdanda o'zim hayratda,
Birgina o'zimga tobe-la boqsam.
O'lis tarixda ham o'zimni eslab,
Kelajak bog'ini o'zim sug'orsam.

Birgina o'zimga itoat qilib,
Ko'nglim istaganin qilsam har nafas.
Do'st-yoron, boshqalar kerakmas, aslo
O'zgina havo va tinchlik bo'lsa bas.

O'zganing so'zlari jahannamga teng,
Eshitmoq uchun sabrim yetmayapti.
Shu kunlarda hayronman nechun,
O'zimdanda boshqalar hech yoqmayapti...

VATAN

Yuragim orqaga tortar qadamda,
Ne qilay, majburman, o'zim qurgan yo'l.
Yolg'izlikdan yiroq bo'lgan olis makonda,
Baxt gullarin yaproqlari beqiyos va mo'l.

Gar istasang, qo'shtikanli yo'laklardan,
Yurib senga baxt gullarin keltiraman.
Vatan, seni dunyolarga ilinuvchi,
Olis qadam tashlaydigan bir yo'ldaman.

Ammo avf et, mashaqqatli har qadamda,
Senga hamroh bo'la olmam, ayb bilaman.
Senga faqat issiq nonlar yopib kelib,
Faqatgina bir piyola choy tutaman.

Qarab turgin, hali qizing dunyodagi,
Eng beqiyos chechaklardan keltiradi.
Yelkangdan ham olib barcha mashaqqating,
Ketmoningni olam uzra tik tutadi.

QOMUS

O'tgan asrlarda qiynaldi bu xalq,
Go'yoki qalbida erksizlik mudom.
O'z fikrin aytmoqqa jur'at qilolmay,
Bitta so'z demasdi, demasdilar lom.

Chol-kampir, bolalar, kelin-kuyovlar,
Barcha talabalar terardi paxta.
Og'izdan chiqqanin majburan aylab,
Muhayyo qilardi, bajarar shartta.

Xotinlar bir qo'lda farzandin ushlab,
Ba'zilar qo'lida tutardi kitob.
O'z ahli uchun kurashar edi,
Har bitta fuqaro bo'lsa-da betob.

Ayovsiz yomg'irda shalabbo bo'lib,
Paxta termoq uchun shoshilardi xalq.
Go'yoki qalbida bir lahja so'lib,
Tobe-la boqardi o'zgaga faqat.

Ammo yangilandi, bu yangi zamon,
Paxta, terimchilik olindi yo'ldan.
Duoga qo'l ochib har bitta inson,
Inson qadri aziz har qaysi eldan!

Hayot kitobida mujassam bari,
Ming asr o'tsaki, boqiydir bir muz.
Insoniy huquqlar ilk ostonasi,
Budir chin qonunlar kitobi – Qomus.

ERTA TONG

Erta tong boshlarim aylanadi goh,
Yolg'onning ayovsiz zarbalaridan.
Gohida dunyodan topmayin panoh,
Singaman tuproqqa quduq tanidan.

Yuragim og'riydi, qamchilar vijdon,
Ko'zguga yuzlanib ko'zimga boqsam.
Ko'ngilning qaysidir burchaklarida,
Bitta rost kalom kam, bitta rost so'z kam.

Ayniqsa, ko'ngilning devorlarini,
Teshgudek sanchilar ko'ngil o'kinchi.
Bedodlik tuyg'usin chopib tashladi,
Hayot o'rmonida boqiy o'tinchi.

BOLALIK

Oy suzadi osmonda,
Bilmam qayga yetaklar.
Jonlanadi tunlari,
Momom aytgan ertaklar.

Uyqusidan uygʻonib,
Koʻchaga tomon shoshgan,
Va maktabga ketar chogʻ,
Sumkasiga bir choʻrak,
Kulchalar solib qoʻygan.
Soʻnggi avlod biz edik.

Peshin payti majnuntol,
Qoʻrqar edi bizlardan.
Sochlarin yuvar edi,
Qazilgan ariqlardan.

Momom bilan oʻsmani,
Qoshga surmoq boʻlakcha.
Koʻcha farzandlariga,
Maqtanish uchun chiqar,
Qoʻshma qoshli yurakcha.

Afsus...
Koʻzlarim yoshlanadi,
Orqamdagi bir hayot,

Unda yoshlik, bolalik,
Beg'ubor gullolalik,
Va o'zimni ko'raman.
Ko'zlarimda bir yosh yo'q,
Ko'ngil yig'laydi bot-bot.

BEPARVO

Beparvo o'ylarda katta dunyolar,
Beparvo qadamda so'ngsiz bir manzil.
Beparvo o'ylarga cho'mar daryolar,
Beparvo o'ylarda maqsadlar har xil.

Farg'ona...

Marg'ilon...

Ipak to'quvchi...

To'rt tomon siqadi ulkan xonani.

Yuragim hovuchlab kiraverdim men,

Bosmoqqa iymenib keng ostonani.

Kirsam... Mashinalar zorlanib yotar,

Atrofda xotinlar qiqir-qiqiri.

Qulog'im ostida ashula aytar,

O'sha taxtalarning taqir-tuquri.

Atrofga beparvo qaradim asta,
Devorda osig'liq ro'mollar ko'rdim.
Vo ajab! Qo'rquvdanmikan, birpasda,
Ichimda muzqotgan hayratim o'ldi.

Ro'mollar rang-barang – hammasi har xil,
Turfa xil o'ylardan to'qilgan ular.
Demak, taqdir bo'ldi eng so'nggi manzil,
Ularga devorda qoqilgan mixlar.

Po'stin olmay qo'ydi ahmoq odamlar,
“Pillamni olinglar” – g'avg'o solar qurt.
Qo'rqaman, bir kuni mening o'ylarim,
To'qish taxtasiga bo'p qolsa manqurt.

Beparvo dunyoga mung'ayib boqsam,
Taxtalar o'yimdan ro'mol to'qiydi.
Dod solib, xayolim kesinglar desam,
“Tilimni ochiqqan bulbul cho'qiydi”.

SENGA...

I

Nihoyat quyoshning chambaragini,
Aylantirmoq bo'ldi, daydi hislarim.
Qodiriy qalamin so'ndirganlarning,
Siynasin xanjar-la o'ymoq istadim.

Quturgan itlarning xirillashlari,
Ming tuban ichida moziyga yaqin.
“O'tgan kun”larining siniq mash'ali,
Tubanliklar aro boqiy yashasin.

II

Qaytsin...

Qaytsin asrimizning aziz onlari,
Bong ursin odamlar, bong ursin faqat.
Vodiylarni yayov kezgan Olimjonlari,
Qizg'aldoqqa oshiq bo'lgan sodda Muhammad.
Qaytsin ayozlarda paxta tergan chin dehqonlari.
Tug'ilsin...

Vatanni ta'riflamoq-chun,
Tillaridan ayrilgan farzand.
Dunyoga nomingni yoymoqlik uchun,
Tug'ilsin Temurdek yana bitta mard...

III

O'lmasin...
O'zligin sevadiganlar,
Qulluq qiladiganlar,
Va...
Sevgisin rangidan ilhomlar olib,
Vatanni qalamda chizadiganlar.
O'lmasin.
O'lmasin.
O'lmasin...

IZLAM

Haybatli yo'llarda madori qochgan,
Moziydan bugunga kelmoq istamas.
Qanchalab yo'llarning sirin ochgan-u,
Aybdor yo'llarga bitta so'z demas.

Daydi ko'chalarda daydib yurardi,
Qalblardan qidirdi o'zga bir uchqun.
Tunda derazadan boqib turardi,
Momomning ertagin eshitmoq uchun.

Vujudi tirnalgan, yo'llarda sayoq,
Malham bo'lolmaydi Alisherlari.
Men-ku yuragimni yozaman, biroq
So'ngida iymenib qolar she'rlarim.

Dod,
Ayvondagi ko'rpachalarda
Ho'ngrab yotar edi bir odam – majnun.
Derdi: "Xarob bo'ldim chang ko'chalarda,
Biroq suv sepgandim,
gul ekkandim bundan yurmoqlik uchun.

Manam hayron boqib so'zlardim tilsiz,
Hayratdan qaltirar butun ich-etim.
O'zimdan xijolat tortardim shu chog',
Chunki shu yo'llarda o'ynagan edim.

Shunda, eshik ochib kirib keldi,
Voh,
Najot istab turdi haligi odam.
Unga boqib turdi bir oz xayrixoh,
Keyin...
Vatanga do'ppisin kiygizdi otam.

KO'NGIL BORKI...

Ko'ngil borki, o'zga ko'ngil qoyalari tegib o'tmas,
Ushlay olmas bir shoirning bilaklaridan.
O'laksalar balandparvoz gap-so'zlardan
bo'lganda mast,
Hayo qilar oq bulutning yuraklaridan.

Ko'ngil borki, zaharxanda iltifotdan,
O'zin tiyib osmonlarga uchib ketgan.
Qadrin bilmas ikki kunlik bu dunyoga,
“Hasratlaring dunyo qadar ulkan” degan.

Daryolarga so'nggi tomchi bo'lmoq shartmas,
Ko'ngillarning piri bo'lmish insonlarga.
Inson o'zi o'yinqaroq, oshiq, sarmast,
Qah-qah urib kulayotgan osmonlarga.

Ko'ngil borki, telba hislar karvoniga,
Fano dunyo og'ushida madad bo'lgan.
Ko'ngil borki, horg'inlarda sarboniga,
Ishq o'tida lahja bo'lib yonib bergan.

Ko'ngil borki, o'zga ko'ngil qoyalari tegib o'tmas...

* * *

Chaqnayotgan quyosh nuri gulga tushdi,
Bu gul borki, manglayida oltin xurjun.
Gir aylangan kapalaklar gulga qo'ndi,
Oltin xurjun tolasini hidlamoq-chun.

Bu gul borki, yagonaman deya o'ylab,
Manglayini tik tutgancha kunga boqdi.
Hasrat bilan, hayrat bilan, sabr bilan,
Tik yuzlangan ko'zlarida yoshlar oqdi.

Quyosh chiqdi osmonning qoq o'rtasiga,
Gul madorsiz bo'lsa hamki madad kutdi.
Va oxirda sabri tugab ensasiga,
Bir kapalak astagina kelib qo'ndi.

O'zi mitti gul bo'lsaki, qalbidagi
Osmon qadar xasratlardan to'yib ketdi.
Manglaydagi oltin sochi yo'q namlikdan,
Qurib ketdi, qurib ketdi, qurib ketdi.

Bulut bo'ldi manglaydagi oltin sochi,
Bir qo'zg'aldi, shamol go'yo ko'p quturgan.
Bulutlar ham tola misol uchib ketdi,
Faqat qo'ndi bir tolasi qaro yerga.

Darrov undi, soat sayin misli sehr,
O'yladimki, qalbida bor hur bayoti.
Bu gul bir kun unib-o'sib, kuladi,
Lek...

Uni kutmasaydi gulning hayoti,
Uni kutmasaydi baxtsiz hayoti...

SALLAMNO

Adashgan yo'llarning poyoni o'chgan,
Kalxatlar qoshida olis manzillar.
Huv yoqda ko'ngilning tayog'i singan,
Nogiron ahvolda qancha ko'ngillar.

Isyonkor ruhlarning hayqiriqlari
Bir kun quloqlarim kar qilmasmikan?
Turnalar tortishsa kipriklarimdan,
Sochimda arg'imchoq uchadi Vatan.

Osmonga tutashgan chinorlar bargi,
Quyoshda qizarib qon bo'lib ketgan.
Kun bilan osmonning bor bitta farqi,
Chunki fazo yuzi qalbga yo'g'rilgan.

Ko'zlardagi muqim o'lmaydigan nur,
Qalbdagi hurlikni qilar tamanno.
Qaysidir insonning qilgan duosi:
"Adashgan yo'llarga bo'lsin sallamno,
Adashgan qalblarga bo'lsin sallamno".

YURT QAYG'USI

Olis yo'lni bosib o'tgan xalq qalbida,
To'lqin borki, tomchilari matonatdan.
Hayrat bilan mangu tog'larning qa'ridan,
“Xalqingga boq, farzand!” degan ovoz keldi.

Xalqqa boqdim sinchiklanib,
Dehqon bilan bug'doy o'rdim.
Sahrolarda...
Daryo qazgan nigohlarda,
Qasdni ko'rdim, shaxtni ko'rdim, baxtni ko'rdim.

Ammo...

Shu kungacha
Yig'lagandi ko'zyoshlari daryo bo'lib,
Qo'lin kesdi, tuhmatlardan bo'lib bezor.
Ko'ksidagi urib turgan siynasini,
O'yib ketdi “kimdir” degan o'sha beor.

Ko'nglida-chi, hayrat degan o'ynoqilar,
Ko'zin yummay o'lishiga majbur qilgan.
Yo'llardagi “orzu” nomli bayroqlarni,
Bu yo'llardan asragancha olib o'tgan.

Yo'lda ketib borar majnunlar kabi,
Ko'zidan bilindi qancha xo'rlangan.
Hech kimga zarari tegmasa hamki,
Uning ko'p orzulari,
besabab o'g'irlangan.

Yo'lda chiqib qoldi bir chashma,
Bordi...
Entikib suv ichdi chanqagan ekan.
So'ngida Xudoga sanolar aytdi,
O'zin sanar ekan eng baxtli, bekam.

Yo'lda davom etdi hayollar surib,
Manzili qaydadir bilmas o'zi ham.
Sababsiz yig'laydi, sababsiz kulib,
Sababsiz o'ziga yetishmas fahm.

Oyoqyalang qadam tashlar muttasil,
Ilinj bor qalbida, bilolmam, netay?

Dedim: “Ey devona qayga ketyapsan?
Yo‘limiz bir bo‘lsa sen bilan ketay”.
Kulumsirab qaradi qosh-u ko‘zimga,
“Men bir devonaman, telbaman, majnun.
Huuv yoqda, sog‘larni deb vatan kasal bo‘libdi,
Ketayapman uni tuzatmoq uchun”.

Yo‘limiz birmikan? Yur, birga ketsang...

QADAM

Qadamlar...

Qadamlar...

Qadamlar...

Katta yo'lga boshlar qadamlar.

Qadrsiz dunyoda qadringiz topib,

O'zlikni unutib qo'ymang, odamlar!

Yurak qurg'ur nozik ekanki,

Dunyolarga qilmadi bardosh.

Osmonlarning qahqahasidan,

Topolmadi o'zga bir sirdosh.

Horib, bir to'lg'onib, bosdi u qadam,

Go'yo nafratlangan hayot, baridan.

So'ngra bir iymanib suv icha ketdi,

Asl yolg'izlikning quduqlaridan.

Zaminda quldorlar xarxashasin va

Qullarning qontalash ko'zyoshin ko'rdi.

Asli zamon emas, odamlar o'sha...

Odamlar kaftiga sirtmoqlar urdi.

Osmonlarga uchib ketgan yuragim-ay,

Zamonlarga qarab, boqish istamas qiyo.

Koʻzlaringni ochgil, iltimosim, hay,
“Qayerlarga qarab ketyapsan, Dunyo?”

Aslida, zamonni ayblash shart emas,
Uni oʻzgartirgan insonlar bisyor.
Bunday kengliklardan boʻlganda sarmast,
Torayib ketmoqda ulkan bir diyor.

Qadamlar...

Qadamlar...

Qadamlar...

Katta yoʻlga boshlar qadamlar.

Qadrsiz dunyoda qadringiz topib,

Oʻzlikni unutib qoʻymang, odamlar.

ONAMGA

Sening qalbing olov, sening qalbing nur,
Sening qalbing ichra dunyolarim bor.
Sening qalbing bilan vayrona ham hur,
Sening qalbing bilan go'zaldir bahor.

Sening ko'zlaringdan arimas yog'du,
O'zgalar ustimdan kulyapti, ana,
Kichik vatan ichra giryonim bor-ku,
Naqadar bag'ring keng, ey munis ona!

Sen ham dunyolarni ko'rmay o'tyapsan,
Tiling aytmasa ham, aytyapti ko'zing.
Seni tashlab davr surmog'im shartmas,
Chunki bu dunyoda dunyoyim o'zing.

Men bir Nodiraman, Uvaysiyman men,
Sening ta'rifingni qalamda chizgan.
Senga so'z demasam osiydirman men,
Senga gullar atab, ularni uzgan.

Ey ayol, volidam, chashmi giryonim,
Qalbi bir yon, shaxti bir yon, sabri bir yonim.
Men o'lsam tanamda o'quvchi qonim,
Mening-chun muqaddas, qadri osmonim.

Naqadar bag'ring keng, ey munis ona...

O'ZBEKISTON

Menga bu dunyolar kerakmas aslo,
Manim-chun yetarli yorug' jahonim.
Qadim turk elidan beradi sado,
Mustaqil Vatanim – O'zbekistonim.

Go'yoki onasan har bir insonga,
Yomon kunlarda ham daldalar bergan.
Har bir inson uchun yuraging ochiq,
Yurtim, Quchoqlaring osmondek ulkan.

Erkim deb yasharman sensan sarbonim,
Har bir go'shang so'lim bog'u bo'stonim.
Yangi hayot uchun, yangi yurt uchun,
Hur diyor atagan O'zbekistonim.

Yangi o'zgarishlar, yangi avlodlar,
Yangi rivojlanish bu sening baxting.
Boshida qanchalar tashvish bo'lsa ham,
Dunyoda bolam deb yashaydi xalqing.

Senga bo'lgan sodiq e'tiqod bilan,
Senga fido jonlar topilmaydi kam.
Menga bergan cheksiz imkonlar haqqi,
Ko'zim qarog'ida yashaysan, Vatan!

MEN QOCHAMAN...

Men qochaman yulduzlarni sanab-sanab,
Ortimda hayotning yoshlari qat-qat.
Quyoshni aylanib chiqar tentirab,
Bir sevgirang inson, bir majnunsifat.

Osmonning burchagi ko'rinmay qoldi,
Umr to'liqinining qalqishlarida.
Zangori dunyoga lentalar taqdim,
Beparvo o'ylarning qarg'ishlaridan.

Daydi shamollarning hayqirig'idan,
Daydi yuraklarim bo'ldi darbadar.
Menga qo'lin siltab turar bir chetda,
“O'sha suvda bo'kkan mushukday shahar”

O'rgildim vaqtincha ko'rk, chiroy uchun,
Osmonni bezovchi yulduzlaridan.
Kulrang tuyg'ularim ko'karib ketdi,
Sovuq nigohlarning ildizlarida.

Yetim to'tiqushlar yetimlik qilib,
Yetim yer sharida qo'rsar kimlarni.
Oldin tortar edi o'jarlik qilib,
Momom o'rib qo'ygan o'rimlarini.

Men uchun Neptunda atirgul ekib,
Sevgiga zor bo'lgan bir mudroq Vatan.
Men esa dunyoga lentalar taqdim,
Sovuq nigohlarning qarg'ishlaridan.

Men esa dunyoga lentalar taqdim,
Beparvo o'ylarning qarg'ishlaridan.

MUNDARIJA

Hayqiriq	3
Surat	5
Yigʻlarkan inson... ..	7
Holat	8
Vatan	9
Qomus	10
Erta tong	11
Bolalik	12
Beparvo.....	13
Senga... ..	15
Izlam	16
Koʻngil borki... ..	18
“Chaqnayotgan quyosh nuri gulga tushdi...”	19
Sallamno	21
Yurt qaygʻusi	22
Yoʻlovchi	23
Qadam	25
Onamga	27
Oʻzbekiston	28
Men qochaman... ..	29

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(50'zb)

N 42

N 42 Rustamboyeva, Nigina

Baxt gullari [matn]: *she'rlar/Nigina Rustamboyeva.*

– Toshkent: “Adabiyot” nashriyoti, 2024. – 32 b.

ISBN 978-9910-9372-5-5

Adabiy-badiiy nashr

Nigina RUSTAMBOYEVA

BAXT GULLARI

She'rlar

Muharrir: *M. Nurmetova*

Badiiy muharrir: *A. Umarova*

Sahifalovchi: *A. Qayimov*

Musahhih: *I. Isamuhammedova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

“ADABIYOT NASHRIYOTI”

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

Тел: (98) 128-30-04.

Bosishga 20.08.2024-yilda ruxsat etildi.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi 70x90 ¹/₃₂.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 2.0.

Adadi 500 nusxa.



“Mashhur-press nashriyoti” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.